

O'ZBEK SHE'RIYATIGA YAPON SHE'RIYATIDAN O'ZLASHGAN JANRLAR XUSUSIDA

Nilufar Saitova Abdurahim qizi

Surxondaryo viloyati Pedagogika markazi QT MOTS BMOB bo'limi bosh mutaxassisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15400978>

Abstract. This article talks about the original genres of Uzbek literature and their development in our literature. In this, mainly the examples of hokku and tank genres are presented. The author turned to the works of poets who created in these directions and tried to give their comments.

Аннотация. В данной статье говорится о самобытных жанрах узбекской литературы и их развитии в нашей литературе. Здесь представлены в основном примеры жанров хокку и танков. Автор обратился к творчеству поэтов, творивших в этих направлениях, и попытался дать свои комментарии.

Adabiyotimizda Cho'lpon, Usmon Nosir, Rauf Parfi, Farida Afro'z singari o'zbek tarjimonlarining oxiri yo'q ro'yxatini keltirish mumkinki, ular she'riyatimizning, adabiyotimizning janriy boyishi yo'lidagi xizmatlari beqiyosdir.

Biz bugun to'xtalishni maqsad qilgan janrimizdan biri bu xokku bo'lib, u yapon adabiyotidan o'zlashgan janrlardan biridir. Xokku tarixiga yuzlanadigan bo'lsak, uning quyosh chiqar mamlakat, Yaponiyada o'rta asrlarda paydo bo'lganini bilib olamiz. Yapon lirkasi noyob namunalaridan bo'lgan xokku (xayku) o'zining eng qisqa satrlarda tabiat hamda inson hayotining ajralmas birligini tasvirlay olish xosligi bilan xarakterlanadi.

Manbalarda xokkuning janr sifatida XV asrda paydo bo'lganligi aytildi. Dastlab, ushbu janr mustaqil qo'llanmagan, balki renga tarzida, ya'ni, birlashtirilgan satrlar shaklida qo'llangan, ammo, ko'p o'tmay uning mustaqil qo'llanila boshlangani va o'sha paytdagi Yaponiyada taniqli she'riyat turiga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

Xokkuning mustaqil janr sifatida ommalashishi uchun Matsuo Bashoning xizmatlari kattadir. U renga shaklidagi xokkularni alohida – alohida yozilgan uch qatorli baytlar shaklida yozishni boshladi va bu ishi orqali u xokkularning birinchi yozuvchisiga aylandi hamda bu uslubda ijod etgan eng mashxur bo'lgan shoir sifatida tarixda qoldi. Uning davrida manzara lirkasi Xoykuning mazmuniga aylandi.

Bashoning o'zi aslzodalardan bo'lgan, ammo uning hech qanday mol-mulki bo'lmagan.

Uning yozgan xokkulari turli mavzularda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, davlat haqidagi "Saby" xoykusi "Ma'rifatli yolg'izlik" deb tarjima qilinadi.

Xokkuning birinchi satrida nima muhokama qilinishi aytilgan. Ikkinchisida birinchisining ma'nosi ochib berilgan. Uchinchi qatorda esa, bularning barchasidan kutilmagan xulosalar chiqarilgan.

Yapon xokkusini "aql gimnastikasi" ham deyishadi. Chunki uch qatorli she'rda butun boshli bir syujetni singdira olish yaxshigina mahorat talab etadi. Xokkuni boshqa xalqlar adabiyotida ham uchratamiz. Lekin bu boradagi uchrashi mumkin bo'lgan to'siq va kamchiliklarni dunyo filologlari va yapon ijodkorlari ham e'tirof etishgan. Xokku xokku bo'lishi uchun 17 bo'g'inda yozilishi 5 bo'g'ini birinchi qatorda, 7 bo'g'ini 2- qatorda va yana 5 bo'g'ini uchinchi qatorda bo'lishi qolip sifatida keltirilgan. Lekin yapon xokkusi ijodkorlarining o'zi ham, xususan, Basho ham bu qolip- dan chetga chiqqan holatlari mavjud.

Xokkuning yana bir o‘ziga xosliklaridan biri: u tugallanmagan bo‘lishi va tasavvur hamda o‘ylangan fikrlash uchun joy qoldirishi mumkin. Xokku yozish san’ati, aynan, fikrlarni ixcham ifoda etish qobiliyatini yorqin namoyon etish namunasidir. xokkuda faktlar yalang‘och, bezaksiz qoldiriladi.¹

Yapon milliy she’riyatining nozik san’ati hisoblangan xokkularning o‘zbek adabiyotiga kirib kelishiga bosh sababchilaridan biri Rauf Parfidir. Xokkular borasida uning o‘zi: “*Yapon poeziyasida xokku deb ataluvchi she’rning bir turi bo‘lib, qisqaligi va go‘zalligi bilan o‘ziga xosdir. Xokkuda tabiat va tabiat orqali inson kayfiyati aks ettiriladi. Xokku uch misradan tashkil topgan qofiyasiz she’rdir. Birinchi misra besh bo‘g‘in, ikkinchi misra yetti bo‘g‘in, uchinchi misra besh bo‘g‘in – hammasi o‘n yetti bo‘g‘in bo‘lib, bu shakl qat’iy emas.*

Xokku yozish katta mazmunni oz so‘z bilan ifoda etish san’atidir.

Xokku tasviriy san’atga yaqindir. Rassomlar xokkuda tasvirlangan ifodani rasmda aks ettirishi yoki shoir rassom chizgan suratga qarab xokku yozishi mumkin. Shamol, bulbul navosi, kakku ovozi, umuman, har bir tovushning o‘z ma’nosini bor va bu har xil kayfiyat va hissiyot uyg‘otadi. E’tiborsiz o‘qilgan uchlik o‘zining asl ma’nosidan mahrumdir... ”- degan fikrlarni keltirgan.

Gulgun bahor bayrami,

Juldur chopon bir gado...

Kimdir ul? Ehtimol, dono?²

Matsuo Basyo ijodidan tarjima qilingan ushbu uchlikda Rauf Parfi tashqi ko‘rinish aldamchi bo‘lishi mumkinligini, juldur kiyimdagи oddiy ko‘ringan kishi zamirida ham dono kishi yashiringan bo‘lishi ehtimolligi bo‘lgan jahon adabiyotida mavjud klassik obrazni o‘z uslubida takrorlanmas qilib oolib bergan.

Keyingi misralarga qarang:

Tol uxlaydi bosh egib,

Go‘yo uning joni kabidir,

Butoqda bulbul.³

Qimirlamay uyquda yotgan tolning yuragi urib turganiga ishora butoqdagi bulbuldir.

Ushbu misralarni o‘qigan o‘quvchi bevosita falsafiy fikrlar og‘ushiga cho‘mgisi keladi.

Inson qariydi. Qarigani uchun kamharakat bo‘lib qolishi, o‘tirgan joyida mudrab qolishi ehtimol. Lekin baribir uning yuragi urib turadi. U hayot.

Bundan so‘ngi tarjima misralari ham o‘quvchini ko‘ngil falsafasidan yiroqlashtirmaydi:

Ulug‘vor qiyofada

Boqmas gilos guliga

Tanho qayin daraxti.⁴

Odamzod qanchalik yuqorilasa, shunchalik yerdagi oddiy go‘zallik ham xira tortib, ko‘rinmay qolishi mumkin. Inson nafsi istagan barcha narsaga yetibdiki, kamdan-kam noyob odamizod kibrga berilmaydi. Kibr qayinni shunchalik go‘zal gilos gullariga ham qaramaslikka undamoqda....

Yana bir hayot falsafasi:

Birinchi qor yuzida

¹ Miyamori Asataro tomonidan qadimiy va zamonaviy xayku antologiyasi, Tokio, 1953; Nihon koten bungaku taikei, 45 -jild, 58, Tokio, 1959.

² Mamlakat Jo‘raboeva. Bizning Rauf // Umr daftari. – T., 2016. 117-bet.

³ Yasunari Kawabata. Yaponiya chiroyidan nur emgan. Juhon adabiyoti. 2010 yil. 8-son. 166-bet. Q. Do’stmuhammad tarjimasi.

⁴ O’sha manba 167-bet

Qish tongi go'zal ko'rinur
Badbashara qarg'a ham! ⁵

Bunda shoir Basyo yashab ko'rmaguncha holatning asl yuzini ko'rolmaslikka, qop - qora qarg'aning ham hatto bиринчи qorda chiroyli ko'rinishini tasvirlagan. Bu uchlikni o'qigan o'quvchining xayoliga dastlab, ertalab turgan o'zi va tashqarida tuni bilan yog'ib hamma joyni oqqa burkagan qor hamda undagi qarg'a tasviri yarq etadi. Bir qarashda hammasi chiroyli, lekin shoir "badbashara" so'zi orqali yuqorida ta'kidlaganimiz:- "boshida barchasi chiroyli ko'rinati", "yashab ko'rganingda asliyatni anglaysan" fikrimizni isbotlagan. Ko'nglingizga go'zal ko'ringan qorning sovuqligini taningiz his etadi, boz ustiga yoqimsiz qarg'a ovozi...qarabsizki, tezroq bahorga chiqqizing keladi...bu hayot qonuni. Inson barcha narsadan zerikish xususiyatiga ega...o'quvchining bu hislariga tarjimonning mahorati sabab. Aytishadiku, tarjimon she'mni tarjima etmaydi, balki uni qayta yozadi. Rauf Parfi bu uchliklarni mahorat ila qayta yozib, yapon she'riyatining o'ziga xos go'zallagini o'zbek adabiyoti ixlosmandlariga tanita oldi.

Tarjimalardan so'ng u "Chag'alay" nomli uchliklar turkumini yaratdi. Ushbu turkumda Rauf Parfiga xos, o'zgacha uslubdagi, vatan mavzusi kuylangan xokku namunalarini ko'rishimiz mumkin. "Shamolga osilib yashadim" turkum xokkularida esa, mashrabona uslub o'z ifodasini topgan.

- 1. Shamolga osilib yashadim,
Mingga kirdim, chiridi jismim,
So'ngaklarim oqardi qaqshab.*
- 2. Dunyosiga qo`ydim qo`limni,
Oyog`imni bosdim yuziga,
Ko`zlarini yumdi bu dunyo.*
- 3. Bir piyola may ber, azizim,
Bag`rim yonib bitdi, kul bo`ldim.
Chivg`inlarga sotdim o`zimni.*
- 4. Qorlarga ko`mildi bog`larim,
Tog`larimga cho`kdi osmon.
Sen yo`qsan. Sen yo`qsan? Sen yo`qsan!*
- 5. Balki men Majnunman,
Balki siz, Layli,
Balki men mahkumman, balki siz jallod.*

Shamolga osilib yashab, jismi chirib, so'ngaklarining oqorganini tasvir etishining zamirida shoirning butun umr erkka, ozodlikka intilganini payqash qiyin emas. Zero, shoir qalbi tutqunlikka begona qalbdir. G'arbona shaklning sharqona mazmun bilan to'yintirilgan ushbu uchliklari Rauf Parfi yuksak mahoratining namunalaridir. Ikkinchchi uchlikdagi may obrazi sharqona ruhni yana ham kuchaytirgan. Majnun va Layli obrazlarining ham e'tirofi tasavvufiy ma'no kasb etgan. Milliy she'riyat an'analarini inkor etmagan holda yangi uslubni yaratganligi, Rauf Parfi ijodining o'ziga xosligidan deyish mumkin.

U talabalik paytlaridanoq bu san'at turining oshnosи bo'ldi va boshqalarning ham bu boradagi izlanishlarini qo'llab-quvvatlab ilhomlantirdi. Rauf Parfi o'zbek adabiyotida xokku tarjimonlari (Farida Afro'z, Xurshid Davron, Jabbor Eshonqul, Q. Do'stmuhammad) ning ustoz ijodkori sifatida tarixda qoldi.

⁵ So'nggi satr chala tarjima qilingan.

Bugungi o‘zbek adabiyotida Xurshid Davron “Dengiz yaproqlari” va Jabbor Eshonqulning “Shabnamda oy aksi” nomidagi tarjima to‘plamlari ma’lum bo‘lib, yapon she’riyati ixlosmandlari uchun ajoyib tuhfa sanaladi. X.Davron ham, J. Eshonqul ham Rauf Parfi tarjimalaridan to‘liq xabardor bo‘lishmagan. Shu sababli ham, takror tarjima etilgan uchliklarni ko‘plab uchratish mumkin. Matsuo Basyo qalamiga mansub va Vera Markova rus tiliga quyidagicha tarjima qilingan ushbu uchlik:

O, проснись, проснись!

Стань товарищем моим,

Спящий мотылек! O, просни

o‘zbek tarjimonlari tomonidan quyidagicha tarjima qilingan. Uni Rauf Parfi:

Oh, uyg‘on, uyg‘on!

Hamhard o‘rtog‘im bo‘l sen,

Uyqudagiparvona!

Xurshid Davron:

Oh, tez uyg‘on, uyg‘ongin!

Sen mening do‘stim bo‘lgin,

Uxlab yotgan parvona!

Jabbor Eshonqul:

Uyg‘on, tezroq uyg‘ongin.

Qiyomatlik do‘stim bo‘l,

Uxlab yotgan parvona

shaklida tarjima qilishgan. Tarjimalarning har biri ijodiy xoslikka ega. Tarjimalarda ijodkorlarning poetikani his qilish qobiliyati hamda so‘z tanlash mahoratlarining ham alohida-alohida ekanligi ko‘rinadi.

Yapon adabiyotidan dunyo adabiyotiga o‘zlashib ulgurgan janrlardan yana biri bu – Tank (tanka) janri hisoblanadi.

Tank VIII asr yapon she’riyatida paydo bo‘lgan. Uning rivoji IX-X asrlarga to‘g‘ri keladi.

Dastlab tanklar imperatorlar buyrug‘i bilan antologiyalarda keltirilgan va zodagon qatlam adabiyotining an‘anaviy she’riy shakliga aylangan.

Tank yana bir nomi Midzikauta, yaponcha - qisqa qo‘sish demakdir. Tanka ham xokku singari yapon madaniyatining milliy boyligi va yapon poeziyasining asosiy shakli hisoblanadi.

Tank janri haqida Xurshid Davron quyidagi fikrlarni keltirgan: - “*Qadimgi yapon she’riyati asrlar davomida shaklan o‘zgarmas qonuniyatlar, mohiyatan inson yuragida kechgan tuyg‘ular rang-barangligini namoyon etish asosida rivojlanib kelgan. Dunyo(tabiat) va inson(yurak) manzaralarining lo‘nda ifodasi tarzida paydo bo‘lgan beshlik - tanka, uchlik – xokku(xayku) yaponlar tushunchasiga ko‘ra, dunyoda paydo bo‘lgan ilk mamlakat tuprog‘ida tomir otgan ko‘xna daraxtning novdalari va yaproqlariga o‘xshaydi.*

Fikrning qisqa ifodalishi, obrazlar siqilagini talab qilgan shakl torligi janrning she’riy mohiyatini kengaytirish yo‘llarini izlashga majbur qilardi. Bu yo‘l yapon shoirlarini tankada so‘z o‘yinidan, istioradan, majoz va mubolag‘adan keng foydalanishga olib keldi va janr kamolotining rivojlanishiga xizmat qildi. Yuqorida yozganimizdek, yapon xalqi azaldan so‘z sehrli kuchga ega bo‘lishiga ishongan. Shu sababdan, juda ko‘p so‘zlarga ta’qiq tamg‘asi bosilib, oxir – oqibatda asrlar davomida yapon xarakterida o‘z his - tuyg‘ularini “jilovlash”, uni yashirish, ishora va ramzlardan keng foydalanish, so‘z mohiyatidagi yashirin fikrni anglash

xususiyati shakllangan. Xuddi mana shu xususiyat tankada ham, xaykuda ham ochiq namoyon bo‘ladi”.⁶

Tanka 5 yoki 7 bo‘g‘indan iborat bo‘ladi. Ushbu reja asosida qurilgan she’rda quyidagi formulaga muvofiq 5 ta bo‘g‘inli blok ajratilgan:

5-7-5-7-7 bo‘g‘in

Shunga ko‘ra, tanka aniq 31 bo‘g‘indan iborat qofiyasiz she’rdir. Tank she’rlaridagi qisqa shaklda she’riy inoyat va chuqur ma’no aks ettiriladi. Ushbu janrning yana o‘ziga xosliklaridan biri dastlabki uch satr orqali asosiy fikr ifodalansa, so‘nggi ikki misrada xulosa keltirilgan bo‘ladi.

Tankning tarixini o‘rgansak, uning yapon yozuv paydo bo‘lishidan ham ilgari, xalq urf-odatlari va afsonalarida paydo bo‘lganligini ko‘ramiz. Eng xayratlanarlisi, hozirgi kunga qadar tank yapon she’riyatida yyetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Tank she’riy an’analarning qattiq shakl doirasida rivojlanishi va ko‘p qirrali, cheksizlikni qamray olish jihatlari ila bu qadar hayotiylikka erishishini ko‘rishimiz mumkin.

Yaponya elita qatlami ta‘limi ham tanka tarixiy an’analari va asoslarini o‘rganish bilan birga bo‘lgan.

Milliy tankaning mavzulari qat’iy tartibga solingani tafsinga loyiq. Ushbu janr yaponlar hayotining barcha jabhasini qamrab olgan. Unda mehmondo‘stlik munosabatlari-yu ayol-erkak suhbatlari, an’anaviy sevgi muammosi kabi mavzular yoritilgan. Shu bilan bir qatorda yapon oliyjanob samurayining ham o‘z joniga qasd qilishi to‘g‘ri kelib qolgan vaziyatda aytadigan o‘z tanki bo‘lishi majburiy bo‘lgan.

Quyida tank uslubida yozilgan beshliklarning tahliliga e’tiborni qarataylik:

Gullah davrida

Gilos bulutlarga o‘xshaydi –

Buning uchunumi

Ruh yanada kengaydi

Bahorgi osmon kabi ...

Kamo Mabuchi qalamiga mansub ushbu tank namunasida gullagan giloslar bulutlarga o‘xshagini uchun kishiga estetik zavq berib, uning ruhini osmon qadar kengaytirgani tasvirlangan.

Tachibana Akemi qalamiga mansub quyidagi beshlikda esa, butun boshli tabiat va undagi uyg‘oq hayot qofiyasiz besh qatorda aks ettirilgan. Misralarni o‘qigan o‘quvchi beixtiyor bir gala tinimsiz chug‘urlayotgan qushlar, ariqni to‘ldirib oqayotgan suvlar, osmonga bo‘yi yetay deb qolgan qarag‘aylarni ko‘z oldiga keltiradi:

Yog‘ochchining qo‘srig‘i.

Qushlarning kelishmovchiliklari.

Ariqning shovqini.

Shudringdagagi toza o‘tlar.

Qarag‘aylar osmonga yopishdi.

Tanka she’riyatining tugallangan va eng to‘liq ifodasi "Kokinshu" (yana bir nomi "Kokinvakashu"-Yaponiyaning eski va yangi qo‘shiqlari to‘plami) da ifodasini topdi. Ushbu to‘plamda lirik she’rlar mavzular yuzasidan tartibga solingan.

⁶ Qadimgi yapon she’riyati Xurshid Davron tarjimalari «Jahon adabiyoti» jurnali, 2013/5

Yaponyada tank tuzgan shoir Kajin deb ataladi va tank so‘zi yaponchadan tarjima qilinganda “qisqa qo‘shiq”- demakdir.

Mening darvozalarimda
Qarag‘ay daraxtlarida pishgan mevalar bor,
Yuzlab qushlar kelib, ularni tishlaydilar,
Minglab turli qushlar to‘planishdi, -
Va siz, azizim, yo‘q va yo‘q ...⁷

“Maneshu” she’rlari antologiyasidan olingan muallifi noma’lum ushbu misolda hayot davom etmoqda qarag‘ay mevalari pishgan va uni qushlar to‘planishib yeyishmoqda. Lekin endi hayotda uning qadrdoni yo‘qligi ifodalangan.

Tank rivojini kuzatar ekansiz keyinchalik uning ikki qismga bo‘linganini ko‘rasiz. Bunda tankning dastlabki uch qatorini bir shoir tuzgan bo‘lsa, keying qismini esa boshqa shoir tuzgan:

*Bu erda ular mo ‘jizaga o ‘xshaydi
Ustida kumush tanga –
Tog ‘lardagi karlar tavernasi.*

(Basho)

*Bu mutlaqo befoyda –
Yigitning uzun xanjari bor!*

(Keray)

Bahru-baytni eslatuvchi ushbu tank namunasida urush mavzusi yoritilgan. Bundan kelib chiqadiki, tanklar sevgi muhabbat mavzularini emas, balki, diplomatik munosabatlar va urush kayfiyatini ochib berish uchun ham qulay janr hisoblangan. Ushbu zanjirlar biron bir zodagon uyidagi yig‘inlarda tuzilar va uning boshlanmasi joy egasiga bag‘ishlanishi zarur edi. Aynan shuni tankning xokku janriga nisbatan farqli jihatni deb olsak bo‘ladi. Chunki, xokkuda bunday majburiy qism yo‘q, lekin tabrik yoki kirish qismlarini uchratish mumkin edi.

XII asrda paydo bo‘lgan zanjirli oyatlar XVII asrning ikkinchi yarmida yaponiya adabiyotida mustahkam o‘rin egalladi.

REFERENCES

1. Miyamori Asataro tomonidan qadimiylar va zamonaqiy xayku antologiyasi, Tokio, 1953; Nihon koten bungaku taikei, 45 -jild, 58, Tokio, 1959.
2. Uch g‘ildirakli velosipedlari. Kokku, M., 1973 yil.
3. Mamlakat Jo‘raboyeva. Bizning Rauf // Umr daftari. – T., 2016. 117-bet.
4. Yasunari Kawabata. Yaponiya chiroyidan nur emgan. Jahon adabiyoti. 2010 yil. 8-son. 166-bet. Q. Do‘stmuhammad tarjimasi.
5. Бреславец Т. И. Лирика японского поэта Аривара Нарихира // Известия Вост. ин-та Дальневост. гос. ун-та. Proceed. of the Inst. of Oriental Studies. — 2005. — № 9. — С. 211—224.
6. McCullough, Helen Kreyg (1985). Kokin Vakashu: Yapon she‘riyatining birinchi imperator antologiyasi: "Tosa Nikki" va "Sinsen Vaka" bilan. Stenford universiteti matbuoti. 7–15-betlar. ISBN 978-0-8047-1258-3.
7. Raud, Reyn (2001). "Yaponianing Heianni ochish sharhi: Sensatsiya va yozuv arxeologiyasi". Monumenta Nipponica. 56 (2): 270–272. doi: 10.2307/2668415. ISSN 0027-0741. JSTOR 2668415.

⁷ A. Gluskinsa tomonidan tarjima qilingan.

8. Перевод Пр. Б. или Николая Николаевича Бахтина (Новица). Опубл. в антологии «Песни ста поэтов», С.-Петербург, 1905
9. ОТОМО КУРОНУСИ | Бесконечная Ци (рус.) (24 июля 2019). Дата обращения: 5 ноября 2022. Архивировано 5 ноября 2022 года.
10. Qadimgi yapon she'riyati Xurshid Davron tarjimalari «Jahon adabiyoti» jurnali, 2013/5